



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> January, 2025

## **ZULFIYAXONIMNING ADABIYOTDAGI O`RNI VA ROLI**

Boysariyeva Marjona

Toshkent tibbiyat akademiyasi Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi va kimyo fakulteti 4-kurs talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Zulfiyaxonimning adabiyotdagi o`rni va roli haqida bat afsil fikr yuritamiz. Shoira o`zining she`rlari orqali inson ruhiyatini, ma`naviy izlanishlarini va jamiyatdagi axloqiy masalalarni tasvirlab o`zbek she`riyatiga katta hissa qo`shgan. Zulfiyaxonimning she`riyati va uning jamiyatdagi o`rni ayniqsa, ayolning teng huquqli bo`lishi va mustaqil shaxs sifatida o`zini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Maqola Zulfiyaxonimning adabiyotdagi o`rni va uning bugungi kunda ham ahamiyatini saqlab qolgan asarlarini o`rganishga qaratilgan.

**Kalit so`zlar:** Zulfiyaxonim, o`zbek adabiyoti, she`riyat, muhabbat, ma`naviy rivojlanish, adabiyotdagi roli.

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o`zbek shoirasi 1915 yil 1 martda Toshkentning O`qchi mahallasida hunarmand ishchilar oilasida tavallud topgan. She`rga, adabiyotga muhabbat bolaligida oilasidagi muhit sababli paydo bo`lgan. Ayniqsa, bunda onasi Xadichabegimning roli juda katta:

“ – Onamning qanchadan – qancha qo`shiq va afsonalarini bilishiga aqlimiz bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va dostonlar o`ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Hozirgi davrda yashasa, onam yo shoira, yo olima bo`lardi. Shunga aminmanki, mo`jizalar yaratishga qodir, jahonni ko`zga keng ochuvchi, insonni go`zallik sari yetaklovchi so`zga shaydolik hissini mening qalbimda maktab ko`rmagan ana shu onam uyg`otgandi” , -deb yozadi Zulfiya o`zining tarjimai holida.

U xotin-qizlar bilim yurtida o`qib yurgan vaqtlaridayoq (1931–1934) adabiy to`garaklarga qatnashib, she`rlar mashq qiladi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o`tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she`riyatining nufuzi – bizning murakkab



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> January, 2025

davrimizning haqqoniy ifodasi, o‘ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. Shoira o‘zbek ayolining hayoti,muhabbati va orzularini ifodalabgina qolmay,balki jamiyatdagi tengsizlikka,ayollarning huquqlariga ham oid ko`plab badiiy asarlar va she`rlar yozgan.Zulfiyaxonim shuningdek o‘zbek jamiyatdagi ayollarga nisbatan stereotiplarini o`zgartirishga harakat qilgan.Uning she`riyatida ayollarning tengligi,huquqlari ,erkinliklarini ta`minlash,turmushdagi qiyinchiliklar va oilaviy muammolar ko`tarilgan.

U shaxsiy tajribasi orqali 2-jahon urushidan katta talafot va yo`qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodaladi.

1940-yillar oxirida e`lon qilingan Sovet davlatining san`at va adabiyot to`g`risidagi qarorlari o‘zbek adabiyotiga ham katta zarar keltirdi.Shundan keyin u ijodkor do`stlari singari urushning birinchi oyalaridayoq biri otasini,biri o`g`lini, biri og`ainisini,biri sevimli yorini frontga kuzatib,ular o`rnida kunni tunga ulab mehnat qilayotgan o‘zbek ayollarining lirik obrazini ifodalovchi she`rlar yoza boshlagan. . Shu jumladan Zulfiya 1954- yilda jamoat arbobi sifatida turli mamlakatlarda bo`lib, tinchliksevar odamlar, har qanday urushlarga yo`l qo`ymaslik uchun kurashuvchilar saflarida ishtirok etgan davrlarida “O`g`lim, sira bo`lmaydi urush” she`rini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Oradan ko`p vaqt o`tmasdan ,o‘zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she`r va maqolalar yozdi,ularni ijtimoiy faollikka chaqirib,insoniy haq-huquqlarining poymol bo`lmasligi uchun kurashdi. Shoira ijodini kuzatar ekanmiz, ijodidagi rang-barang ko`rinishlari lirik va epik asarlarida go`zal mohiyatni yuzaga keltirgan.Olislarga qadalgan nigoh,kutish va sabr onlari, muhabbatdan yaralangan dil nolalari,hijrondan yaralgan mungli ohanglar, taqdir hukmining javobsiz sadolari,shodlikning munavvar tongdek sezimlari kishi qalbining bitmas tiganmas idroki shoira Zulfiya lirkasining estetik qarashlarini yaqqol ifodalab turibdi.Zulfiya she`rlari harorat bilan bitilgan ehtirosli, hayotbaxsh she`rlardir.Xoh ular vatan haqida ,uning go`zal tabiat, mehnatkash odamlari,buyuk bunyodkorlik qudrati xususida bo`lsin,xoh insonlarning turfa his-tuyg`ulari :mehr-muhabbat, quvonch-u shodlik,baxt,saodatni tarannum etishga bag`ishlangan bo`lsin,barchasida hayotsevarlik,o`quvchida yorug` kayfiyat paydo etishga undaydi.Bu fikrning isbotini shoiraning “Bog`lar qiyg`os gulda”, “Bahor



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> January, 2025

keldi seni so`roqlab”, “Baxtim bor, ajoyib kishilar aro...” she`rlari misolida ko`ib chiqish mumkin. Har bir adabiy asar va she`rlari mohiyatida obrazlilik mavjud. Darvoqe, “Har bir obrazda shoiraning voqelik hodisalariga shaxsiy munosabati bor. Unda shoiraning dunyoqarashi, ideali, estetik olami mujassamlashgan”. Zulfiya she`rlarida fasllarga ajralgan qalbning ruhiy kechinmalari aks ettirilgan. Masalan, 1945-yili yozgan “Bahor keldi seni so`roqlab” she`rini kuzatamiz va buning guvohi bo`lamiz: Bu she`ri bilan baxt va bahor haqida jo`sib kuylagan yori – turmush o`rtog`i Hamid Olimjonning hayotini, she`rlarini eslatadi va tabiatga murojaat qiladi, uni xayolan o`z suhbatsoshiga aylantiradi.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,

Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.

Qishning yoqasidan tutib so`radi seni,

Ul ham yosh to`kdi-yu, chekildi nari.

“Qani o`sha kuychi, xayolchan yigit?

Nechun ko`zingda yosh, turib qolding lol.

Nechun qora libos, sochlaringda oq,

Nechun bu ko`klamda sen parishonhol?”

Shoira Zulfiyaning adabiy suhbatlardan uning shogirdlariga g`amxo`rlik qilganini ko`rishimiz mumkin. Bu ko`pincha shoiraning yaxshi she`rni qanday yozish kerakligi, she`r yozishda nimalarga e`tibor qaratish kabi masalalarda o`z maslahatlarini bergen. She`rning dunyoga kelish onlari bo`ladi, shoira ana shu jarayonda ilhomiga tayanib ish tutsa iste`dodidan unumli foydalansa yaxshi natijalarga erishish mumkinligiga ishora qiladi. Buning isbotini shoiraning she`rlaridagi yoritib berilgan hayot va ijodi haqidagi tasavvurlarida ko`rishimiz mumkin.

Zulfiyaxonimning she`rlarida ayollarning jamiyatdagi o`rni, ularning erkinlikka intilishi va haq-huquqlari, shuningdek milliy qadriyatlarimiz masalalari yoritib bergen. Uning she`rlari nafaqat muhabbat va o`zini anglash, balki xalqning azob uqubatlari, ularning kamolotga intilishi haqida ham gapiradi. Shoiraning she`rlarida soddalik va samimiyatning o`rni katta bo`lib u badiiy ifodalashda xalq tilining oddiy va jonli ifodalariga tayanadi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices  
Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> January, 2025

Uning asarlari o`z vaqtida ayollar huquqlarini himoya qilish ,ularning jamiyatda teng huquqli bo`lishi uchun targ`ibot ishlarini borish maqsadida yozilgan.Shoiralar o`z she`rlari orqali ayollarning faqatgina uy ishlari bilan cheklanib qolmasdan balki o`z o`rnini topish uchun kurashayotgan shaxslar ekanligini ko`rsatadi.Zulfiyaxonimning ijodiyoti bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega,chunki ular jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va gender tengsizlik masalalarini ko`tarishda davom etadi. Uning ijodi orqali adabiyotdagi va boshqa sohalarda ham ayollarning o`rni va roli o`zgarib,zamonaviy she`riyatda va jamiyatda yangi bir qarash paydo bo`ldi.

## Xulosa

Zulfiyaning oljanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g`ururi, tabiat va insonga nisbatan samimi tuyg`ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo`lgan ishonchini mustahkamlaydi. Zulfiyaxonimning ijodi o`zbek adabiyotida xalqaro darajada tan olingan va dunyo adabiyoti e'tirofida bo`lganligi aytish mumkin. Uning she`rlari va asarlarining tarjimai holatlari va qo'llanmalari bir nechta xorijiy tillarga tarjima qilingan va dunyoda ham o'qilgan va tan olingan. Zulfiyaxonim O`zbekistonda shoirlar maktabining asoschisi hamdir. U ayollarning jamiyatdagi mavqeyini tiklash uchun jasorat bilan kurashgan ayol. Uning faol, izlanuvchanligi va har tomonlama mehnatsevarligi biz yoshlar uchun alohida namuna.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1.G`aniyev I va boshqa.SHavkat Rahmon olami.-Toshkent."Akademnashr"2013.
- 2.Zulfiya.Yillar sadosi.-Toshkent:"Adabiyot va san`at " nashriyoti.1995.
- 3.Zulfiya.Adabiy o`ylar.-T.:”Fan”1985.
- 4.Zulfiya.Tong bilan shom aro.-T.:”SHarq”, 2005.
- 5.Zulfiya she`riyati va estetik qarashlar.КиберЛенинка.
- 6.Tafakkur.net
- 7.Sputnik O`zbekiston



# E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices**  
**Hosted online from Rome, Italy**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

27<sup>th</sup> January, 2025

8.Adabiyot.S.Ahmedov, R.Qo`chqorov, SH.Rizayev.-Toshkent: “Ma`naviyat” , 2017.

9.Fayllar.org

10.ziyouz.com